

## RAQS SAN'ATI FIDOYISI

*Babayev Nurmat Kuranbayevich**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali "Lazgi" bo'limi ilmiy xodimi*

**Annotasuya:** Ushbu maqolada Xorazm raqs san'ati fidoyisi "O'zberistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni sohibasi Zaynura Gaffarovaning hayoti va ijodiy faoliyati, sahnalashtirgan raqslari, san'at yo'lidagi izlanishlari, yutuqlari va o'zbek raqs san'ati rivojidadagi xizmatlari keng bayon qilingan

**Kalit so'zlar:** San'at, raqs, balet, teatr, pedagog

**Аннотасуя:** В данной статье рассказывается о жизни и творческой деятельности Зайнуры Гаффаровой, поклонницы хорезмского танцевального искусства, обладательницы почетного звания «Заслуженная артистка Узбекистана», ее постановочных танцах, творческих поисках, достижениях и узбекском танцевальном искусстве. услуги по разработке подробно описаны

**Ключевые слова:** Искусство, танец, балет, театр, педагог.

**Abstract:** This article extensively describes the life and creative work of Zaynura Gaffarova, a devotee of Khorezm dance art and holder of the honorary title "Honored Artist of Uzbekistan", her staged dances, her research in art, her achievements, and her services to the development of Uzbek dance art.

**Keywords:** Art, dance, balet, theater, pedagogue

Yangi O'zbekistonda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san'atini yanada yuksak mavqega ko'tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy raqsimiz millat tarixini, ruhiyati, orzu-umidlari va armonlarini aks ettiradigan san'at namunasi hisoblanadi. Uning tarixini o'rganish xalqning urf-odatlarini, an'alarini, buguni va kelajagini o'rganish, soha fidoyilarning ijodiy faoliyatini tadbiq qilish, yoshlar ongiga singdirish bugunning ustuvor vazifalaridan biri desak xatò bo'lmaydi.

O'zbek milliy raqs san'ati bugungi kungacha juda katta davrni boshidan o'tkazdi. Uning qadimiy ildizlari, o'tmish tarixi qadimgi diniy marosimlar, xalq o'yin va tomoshalariga borib taqaladi. Mana shu milliylikimizni o'zida mujassamlashtirgan betakror raqsar sahnalashtirib, ko'plab shog'irdlar va muhlislarning sevimli ustozlari va raqqosasiga aylangan inson Zaynura Gaffarovadir.

Zaynura Gaffarova (Zoya Gaffarova) 1923-yilida Qirg'iziston Respublikasi Frunze shahrida (hozirgi Bishkek) tavallud topgan. Yoshligidan tirishqoqligi, san'atga qiziqishi baland va raqs tushishga qiziqqanligi sababli 1936-yili Vaganova nomidagi Leningrad oliy xoreografiya bilim yurtiga o'qishga kirgan. Talabalik yillarida

tengdoshlari va o'qituvchilarining yaqin insoniga, xoreografiya sohasidagi yangiliklarni takomillashtiradigan bilimli talaba sifatida tahsil oladi. Ammo Zaynura Gaffarova bilim yurtini tugatib ulgirmasdan, 1941-yilda ikkinchi jahon urushi avj olib ketadi. Shuning uchun hamma talabalarni o'z yurtiga jo'natadilar. Zaynura Gaffarova ham Leningraddan Qirg'zstanga evakuatsiya qilinadi.

Ota yurtiga qaytgach Zoya Gaffarova Qirg'ziston opera va balet teatriga balet artisti bo'lib ishga kirgan. U urishga qatnashib front ortida jang qilayotgan jangchi-askarlarga ruhiy dalda bo'lish, g'alaba erishishlariga ishonchini mustahkamlash maqsadida konsert brigadalari bilan konsert qo'yib, jangchilar uchun xizmat qiladilar. Qiyin davrlar boshlanadi. Barcha insonlar front ortidagi og'ir mehnatlarni bajarishga majbur bo'ladi. Shu sabab Zaynura Gaffarova ota onasi bilan birga taqdir taqozasi tufayli Ulug' Vatan urushi davrida Qirg'izistondan O'zbekistonga, Xorazm viloyati Xazarasp tumaniga kelib qoladi. Urganch shahrida teatr borligini, raqs sahnalashtirib tomosha qo'yish imkoniyati mavjudligidan xabar topib, san'atga, raqs tushishga bo'lgan his-tuyg'ulari uni Xazarasp tumanidan Urganch shahrigacha qarib 80 km yo'lni piyoda yurib Urganchga keladi. Shu vaqtlarda yo'ltransporti, mashina bo'lmagan, odamlar topsa aravada bo'lmasa piyoda kelaverganlar. Zaynura Gaffarova Xorazm viloyati musiqali drama teatrida balet artisti bo'lib ish boshlaydi va 1959-yil balet artistidan baletmeyestr vazifasiga o'tkaziladi.

Misoli oqqush deysiz,  
Bunga kungil xush deysiz,  
Guyo shirin tush deysiz,  
Zoya opa uynaganda.

Zaynura Gaffarova teatrdan ellikdan ortiq spektakllarga raqs sahnalashtirgan. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi spektakllar shular qatoriga kiradi. Teatr maskonida u 1972-yilgacha ishlaydi. Davlatimiz tomanidan uning mehnatlari inobatga olinib, 1973-yil "O'zberistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan. Teatr bilan bir qatorda, Urganch shahridagi M.Xarratov nomidagi musiqa bilim yurtida iqtidorli yoshlarga raqs san'atidan dars berib boshlaydi. Musiqa bilim yurtida bizga mumtoz raqs, xalq sahna raqsi, o'zbek raqsi va Xorazm raqs san'ati surlarini o'rgatdilar. Erinmasdan har bir fanning harakatlarini, bajarilish uslubini, fransuzcha, ruscha, o'zbekcha atamasi haqida tushuncha berardilar. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda biz bilan ona boladek munasabatda bo'lardi. Har xil mavzuda suhbatlashardik. Odob-oxloq, ozodalik, ko'chada, jamoat joylarida o'zimizni tutushni o'rgatardi. Qiz va o'g'il bolalar bir-birlari bilan madaniyatli tarzda munasabatda bo'lishini, qiz bolalarga doymu hurmatda bo'lishni, qiz bolalar ham o'g'il bolalarning hurmatini joyuga qoyushni talab qulardi. Har qanday muammalarimiz bo'lsa u bilan maslahat qilardik. Ustozimning maslahati va say-harakatlari tufayli 1981-yilda Toshkent Davlat

madaniyat institutining “Madaniy oqartuv” fakultet, Xoreografiya yo‘nalishiga yo‘llanma bilan oqishga kirib talaba bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldim.

Oliyohda o‘qib yurgan vaqtlarimda ustozim Zoya Gaffarovaning bizga qanchalik xoreografiya san‘ati sirlarini chuqur o‘rgatganini, nazariy va amaliy bilimlarini bizga juda ham sidqi-dildan o‘rgatganini, uning tinimsiz mehnatlari samarasini o‘sha davrda yosh bo‘lsam ham qalban his qilganman. Shuning uchun ham oliyohda kasbiy fanlardan qiynalmaganman. Bizni katta hayotga poydevorimizni mustahkam qilib qo‘ygan, odamiylik fazilatlarini singdirgan, san‘atni tushinishni va raqs san‘atining nozik sir atvorlarini o‘rgatgan, tarbiyalagan ustozim Zoya Gaffarovani tez eslab turaman. Shu inson sabab raqs san‘atini tanladim. Raqs san‘atiga, kasbinga bo‘lgan hurmatni, masuliyatni, mehrni Zoya opadan o‘rgandim Bizga o‘rgatgan xorazmcha “Lazgi”, “Bilama”(Usqoq), “Cho‘girma”, Rus xalq raqslaridan “Moryashki”, “Kalinka” raqslari mening bir umr yodimda qolgan.

Talabalik davrimda O‘zbekiston xalq artisti Ortiq Otajonov rahbarlik qilgan “Lazgi” ansamblida ishladim. Men bilan birga Buxoralik kursdoshim Botir Rustamov (hozirda Buxorada baletmeystr) ham ishladi. Men Zoya apa o‘rgatgan “Bilama”, “Cho‘girma” raqslarini kursdoshimga o‘gatib, “Lazgi” ansamblining har bir konsertida bizlar xorazmcha raqslarni ijro qilib tamoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lardik. Raqs san‘ati tufayli taniqli insonlar bilan tanishdim, ular bilan hamsuhbat bo‘ldim, ko‘plab do‘stlar orttirdim.

Hayotimda to‘g‘ri yo‘l tanlashimda ustozimning o‘rni katta. Hozirgi vaqtda ustozning ishini davom qilib, yosh avlodga raqs san‘atidan bilim berib kelayopman. Xorazmning o‘lmas raqsi “Lazgi”ning tarixini, har xil turlarini, shu kungacha ijro qilib kelgan raqs ustalarining hayoti va ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish, yosh avlodlarga etkazish bizning burchimiz va shogirdlik vazifamizdir. Zoya Gaffarova Xorazm raqs san‘atining professional rivojlanishiga katta hissa qo‘shib ketdi. Farzandlari Venera, Zamira, Noyla Gaffarovalar ham onasining ishlarini davom qilib o‘zbek raqsining ruvojanlashida xizmat qildilar.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, har qanday kasbning yomoni bo‘lmas ekan. Kasbingni sevsang, halol mehnat qilsang, kasbing seni hurmatga, maqtovgga munasib qilib qoyarkan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001.
2. B.Amanbayev. “Teatr fidoyilar maskoni”. Ogahiy nashriyoti.2023 yil.
- 3.Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar. Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.
4. Zaynura Gaffarovaning qizi Zamira Gaffarova bilan suhbat xotiralaridan.